

Alisher Navoiy g'azaliyotida Xizr obrazi talqinlari

Xafiza Abduraimova¹
Ilyos Ismoilov²

Abstrakt

Turkiy adabiyot, xususan, o'zbek adabiyoti tarixida Alisher Navoiyning o'rni beqiyos. Shu maqolada Alisher Navoiyning g'azallari, lirikasidagi obrazlar mohiyatiga yetishga harakat qilinib, uning badiiy tasvirlari hamda talqinlarining sabablari bir qadar ochib berilgan.

Maqola uchun aynan Xizr obrazining tanlab olinishi tasodif emas. Xizr turkiy xalqlar mifologiyasi, folklori, adabiyotida juda ham mashhur shaxs hisoblanadi. Shu qadar mashhurligidan maqol va matallarga obraz bo'lib xizmat qilgan. Turkiy adabiyotning ulkan ustuni bo'lgan Alisher Navoiyning ushbu obrazga munosabati, albatta, qiziqarli. Shu sabab ham maqolaga aynan Alisher Navoiy lirikasidagi Xizr obrazi tasvirlari manba sifatida tanlangan.

Maqolada Xizr obrazi bilan bog'liq ham ilmiy, ham badiiy, ham mifik qarashlarni o'rganib, ularning Alisher Navoiy ijodiga qay darajada ta'sir etganligi tadqiq qilingan. Maqolani yozish jarayonida bir necha xorijiy hamda milliy manbalar, diniy adabiyotlarga ham murojaat qilingan.

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, Xizr, Xidirillez, g'azal, Muso (a.s), Iskandar, solih banda, talmeh, timsol, obraz, Xizr-u xatt, Xizri rah, payg'ambar, valiy.*

Kirish

Mifologiya, folklor va adabiyot tarixida Xizr bilan bog'liq turli-tuman qarashlar mavjud. U mifologiyada g'ayrioddiy qudrat va sehrga ega prototip sifatida gavdalanadi. Folklorda asosiy qahramon – alplarning doimiy yo'ldoshi, rahnamosi. Adabiyot tarixida abadiy barhayotlik timsoli, tiriklik suvi nasib etgan, donishmand qahramon.

¹ *Abduraimova Xafiza Allanazarovna* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti.

E-mail: abduraimovaxafiza@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0009-0008-4636-9133

² *Ismoilov Ilyos Abduqayumovich* – filologiya fanlari doktori (DSc), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: ismoilov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-8077-7914

Iqtibos uchun: Abduraimova, X., Ismoilov, I. 2024. "Alisher Navoiy g'azaliyotida Xizr obrazi talqini". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1(2): 98-119.

Diniy manbalarda esa solih, valiy zot yoki payg'ambar sifatida ham ko'rsatiladi.

Burhonuddin Rabg'uziy "Qisasi Rabg'uziy" asarida shunday yozadi: "Xizr ma'nisi yashil bo'lur. Qayu tosh uza Xizr alayhissalom o'ltursa, ul yer ko'karur erdi. Ba'zilar aydilar, Xizr yalavoch erdi. Ba'zilar aydilar, yalavoch ermas, solih, muslih erdi. Tag'i sayramlig'. Bani Isroilda ulg'ardi. Mangu suyin ichib tirik qoldi, ammo Ilyos mursal yalavoch turur" [Rabg'uziy 1990, 28].

Turk olimi Özhan Öztürk Xizr obrazi turkiy xaqqlar og'zaki ijodida ham mashurligini ta'kidlaydi. Israel Friedlander, Ernest Budge va A.J.Wensinck kabi olimlar miloddan avvalgi uchinchi mingyilliklarga oid bo'lgan Shumer yodgorliklaridagi Bilgamish dostoni qahramoni Bilgamishning do'sti Enkidu bilan ikki dengiz orasida yashovchi, abadiy hayot siridan voqif otasi Utnapishtimni izlab safarga chiqishi motivini Sharq adabiyotidagi Xizr obrazi bilan bog'lashganini qayd etadi. Olim o'z maqolasida shunday yozadi: "Türk efsane ve masallarında da Hızır'ın bahsi bolca geçmektedir: Dede Korkut masallarında Boğaç Han'ın yarasını tedavi eden şifacı rolünde olan Hızır, Manas destanında Manas doğduğundan itibaren kahraman için dua eden bir veli, Şah İsmail ve Gülizar destanında ise İsmail'in gözüne mil çekilirken yetişip kurtaran, Saltukname'de Sarı Saltuk'u alevlerden kurtaran, Köroğlu'nun Türkmen varyantında bizzat kahramana Köroğlu adını veren doğaüstü bir varlık olarak tasvir edil-miştir" [URL 2].

Ingliz tilidagi manbalarda Yaqin Sharq mamlakatlari, xususan, turkiyzabon xalqlarda bahor va yoz faslining boshlanishi nishonlanadigan 5- va 6-may kunlari "Hidirillez" festivali o'tkazilishi, bu nom Xizr va Ilyos nomlarining qorishuvidan paydo bo'lgani aytiladi. Ilyos yahudiylik va nasroniylikda tanilgan, miloddan avvalgi IX asrda Isroil shohligining shimoliy qismida yashagan tarixiy shaxs. U yahudiylikda buyuk payg'ambarlardan biri hisoblangan, yahudiy-larga Xudodan yuz o'girib, butlarga sig'inganlarning boshiga katta baxtsizliklar kelishini bashorat qilgan. Ilyos (a.s) o'liklarni tiriltirgan va amalga oshuvchi bashoratlar sohibi ham deyiladi. Yahudiylik va nasroniylikda uning qiyomatgacha yerga qaytishi bashorat qilingan. Xizr va Ilyos "bu dunyo va oxiratning ikki "qo'riqchi ruhi" sifatida tasvirlanadi. Xizr hayot suvini ichib, o'lmaslikka erishgani bois Idris, Iso va Ilyosni o'z ichiga olgan to'rtta abadiy hayot egalaridan biriga aylangan.

Yirik folklorshunos Shomirza Turdimovning yozishicha, epik dostonlarda qo'llaniluvchi "eran" so'zi sof turkiy asosli so'z bo'lib, "homiy ruh" ma'nosiga ega va u dostonlarda Xizrga nisbat

beriladi. Olimning fikricha, Xizr eran. U Go'rog'lining doimiy hamrohi. Xalq orasidagi Xizr ko'rgan odamning uzoq yashashi haqidagi qarashlar- ning tasdig'i sifatida ham Go'ro'g'lining hayoti misol keltiriladi. Olim o'z tadqiqotida Xizr bilan bog'liq xalq orasidagi turli afsona va rivoyatlarni keltirib o'tadi va muhim jihat sifatida: "... uning doimo el kezib, tuyqusdan paydo bo'lib, yana yo'qolib qolishi, boqiy umr ko'rishidir. Odamlar orasida komillikka erishgan odamlargina Xizrni tanib, u bilan doimiy ko'rishib tura oladilar, deb anglanadi" [Turdimov, 2011, 40-44] kabi xulosalarni beradi. Olim Xizrning qadimgi xalqlarning odam kultiga sig'inishi doirasida kelib chiqqan obrazligi hamda qadimda u "Quyosh ma'budi" sanalganligini ta'kidlaydi: "Quyosh yer yuzidagi jami tiriklikning quvvat manbayi hisoblanadi, quyosh haroratining oshishi ko'klamni tug'diradi, qish uyqusiga ketgan tabiatni qayta uyg'otadi. Xizrning eposdagi va xalq tasavvuridagi barcha xususiyatlarida ushbu tushunchalar mujassam. Bu esa uning qadimda quyosh ma'budi sanalganligini yana bir bor tasdiqlaydi. Xizr tarixan butun tirik tabiat, yashillik, ezgulik ilohi, yaratuvchi eran – Quyosh timsolida anglangan, e'tiqod qilingan".

Yana folklorshunos olim M.Jo'rayevning fikricha: "Xizr suv kulti bilan bevosita aloqador ezgu homiy sanaladi" [Jo'rayev, Shomusarov, 2001, 109]. Ozarbayjon folklorshunosi M.Seyidovning Xizr haqidagi fikri esa quyidagicha: "Qam (shomon) va undan-da qadimiy dunyoqarashlar bilan bog'liq bo'lmish Xizrni birgina nomlanishidagi uyg'unlikka asoslanib arab mifologiyasiga taalluqli deb bilish ilmiy adolatsizlik va haqiqatga zid borishdir". Ushbu olim Xizr so'zi umumturkiy so'z, ya'ni "хыз" – "issiqlik", "qizimoq" ma'nosida, "ыр" esa "kishi", "hurmatli", "muqaddas iloh" ma'nolaridagi so'z deb izohlaydi [Seyidov, 1983, 107]. Ushbu fikrlarga deyarli barcha folklorshunos olimlar qo'shiladilar.

F.Nurmonov nomzodlik dissertatsiyasida bu haqda shunday yozadi: "Tilshunos olim V.G.Ahmetyanov Volgabo'yi xalqlari mifologiyasida ham Xizr obrazi mavjudligini aniqlab, bu obrazning genezisini arab folklori bilan bog'laydi. Uning fikricha, "Xizr" so'zi arabcha "xazara" (doimiy yashillik) so'zidan kelib chiqqan. Darhaqiqat, arab tilidagi "Al-huzur" so'zi "yashil rang", "Al-huzrat" so'zi "Ko'kat, maysa", "Huzari" leksemasi "yashil rangli qush", "al-huzarat" esa "yashil" ma'nosini anglatadi" [Nurmonov, 2007, 57]. N.Jo'raqo'ziyevning "Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar va turkiy folklorda kosmogonik mifologiya" nomli dissertatsiyasida Xizr obrazining mifologik asoslariga aloqador muhim fikrlar bildirilgan. Olim, jumladan, shunday yozadi: "G'ulom Akramov Xizr obrazi haqida fikr yuritib, "Xizr obrazi va "xizr suyi"ning mifologik tasavvur qatlami,

asosan, yor-ma'shuqaning mukammal go'zalligi ifodasi talqini uchun qo'llanilgan metaforali assotsiasiyalardir" degan fikrlarni ilgari suradi. Olim, bundan tashqari "Xamsa"da mifologik zamon va makon munosabatlari haqida ham izlanishlar olib borgan. Ayniqsa, "Hayrat ul-abror"dagi maqolat va hikoyatlarining ijobiy qahramonlari – garchi o'tmishda mifologik va epik zamonda yashasalar-da, asosan, mifning umumbashariy g'oyalari zamiridan kuch olgan", degan fikrlari e'tiborga molikdir" [Jo'raqo'ziyev, 2018, 82].

O'zbek adabiyotshunosligida ham Xizr obrazi ancha batafsil o'rganilgan. Professor Najmiddin Komilov "Tasavvuf" kitobida "Xoja Xizr hayot suvi – abadiy tiriklik suvini ichgan, u hamma voqeadan, hamma ahvol-u hamma kechinmalardan xabardor; narsalar xosiyati va qonuniyatini oldindan biladi, Xudo unga o'z bilimini tuhfa etgani" [Komilov, 2009, 39] haqida yozadi.

Asosiy qism

Xizr obrazining tarixiy asoslariborasida qarashlar xilma-xil, lekin biz ushbu tadqiqotda islomiy asoslardan kelib chiqib, xususan, Alisher Navoiyning qaydlariga tayanib, bu obrazning ko'proq badiiy talqinlarini o'rganishga harakat qilamiz.

Qur'oni Karim "Kahf" surasining oltmishinchi oyatidan sakson ikkinchi oyatigacha Muso (a.s) va solih banda rivoyati keltiriladi: "60. Muso (o'zining xizmatkor) yigitiga: "To ikki dengiz qo'shiladigan yerga yetmaguncha yoki uzoq muddat kezmaguncha yurishdan to'xtamayman", – degan paytini eslangiz.

Izoh: Muso (a.s.) ning xizmatkor yigiti Yuvsha' (a.s.) edilar. Shu oyat bilan Muso va Xizr (a.s.) lar qissasi boshlanadi. Bunga sabab Muso (a.s.) Haq Taolodan: "Mendan ham ilmi, martabasi yuqoriroq bandang bormi?" – deb so'raganda, U: "Ha, bor" – degan. "Qaysi yerdan uni topurman?" – deganlarida, "Bir baliqni savatchaga solib dengiz bo'yidan yurib boraverasan. Baliq yo'qolgan joydan uni topursan" deydi. Baliqni savatchaga solib, uni xizmatkori qo'lga berib yo'lga ravona bo'ladilar" [Mansur, A. 2004, 302].

"Sahihi Buxoriy" ning "Kitobut tafsir" ida "Alloh taoloning: Bir kuni Muso o'z yigitiga "to ikki dengiz qo'shiladigan yerga yetmagunimcha yoki uzoq muddat kezmagunimcha yurishdan to'xtamayman" deganini esla" degan qovli haqidagi bobda ham Muso (a.s.) va Xizr haqida Sa'id ibn Jubayrdan rivoyat qilinadi [Buxoriy, 1991, 20]. Aynan mana shu hadisi sharifdan Qur'oni Karimdagi "solih banda" ning ismi Xizr ekanligini bilib olamiz. Chunki Qur'onda "Xizr" ismi tilga olinmasdan "Muso va Solih banda" deyiladi, Hadisda esa "Muso va Xizr" deb aniqlashtiriladi. Mazkur qissa aksar tafsirlarda

sharh qilinar ekan, savatdagi tuzlangan baliq yo'qolgan joydagi suv obi hayot ekanligi aytiladi. Chunki o'lik baliqning suvga suvga tushib yo'qolishi suvning tiriltirish xususiyatiga dalolat deb tushunilgan.

Qur'oni Karim, hadisi shariflar va ko'plab avliyo-yu ulamolarimizning shu kabi rivoyatlari orqali bizga yaxshi tanish bo'lgan Xizr va uning qissasi Navoiy ijodi, xususan, she'riyatida qanday badiiy talqin etilgan? Navoiy Xizr obrazi va u bilan bog'liq timsollardan qanday poetik maqsadlar uchun foydalangan yoki ushbu turkumdagi timsollar shoir ijodida qanday badiiy funktsiya bajargan? Bizni mana shu kabi masalalar qiziqtiradi. Shubhasiz, Navoiy Xizr va u bilan bog'liq timsollar tasvirida mazkur islomiy asoslarga tayangan, ulardan ta'sirlangan. Biroq ana o'sha ta'sirning qay yo'sinda amalga oshgani va qay tarzda badiiy aks etganini tekshirish, bir qarashda ko'zga tashlanmaydigan jihatlarni konkretlashtirish juda muhim masala hisoblanadi.

Alisher Navoiyning o'zi tomonidan turkiy tilda tartib berilganoltita she'riy devoni bizgacha yetib kelgan. Quyidagi statistik jadvalda Navoiyning Xizr atamasi va obrazidan qaysi devonida necha marta foydalangani yaqqol ko'rinadi. Bu jarayonda takrorlar va o'xshashliklar ham uchrashini unutmaslik kerak.

1-jadval

Devonlar	G'azal	Muxammas	Tuyuq	Soqiynoma	Qit'a
Badoye' ul-bidoya	28	1			
Navodir un-nihoya	14				
G'aroyib us-sig'ar	20				
Navodir ush-shabob	15				
Badoye' ul-vasat	17	1	1		
Favoyid ul-kibar	21			2	1

Ta'kidlash kerakki, Navoiyning Xizr obrazi bilan bog'liq badiiy talqinlarini tasavvuf ta'limotining g'oyalarisiz to'laonli tushunib bo'lmaydi. Shu bois Navoiy ijodida ko'p uchrovchi ushbu obraz tadqiqini uning so'fiyona ma'nolarini anglashdan boshlash zarur.

Tasavvuf istilohlarining lug'atlarida "Xizr" so'zi, asosan, quyidagicha izohlanadi: "Hızır: Arapça, yeşil demektir. Hz. Musa (s.) zamanında yaşamış, veli mi, peygamber mi olduğu konusunda anlaşmazlık bulunan bir mübarek zât. Oturduğu yerdeki sararmış otlar, kalkınca yeşerdiği için, kendisine Hızır (yeşil) dendiği kaydedilir. Âb-ı hayat denilen ebedîlik suyunu, Hz. İlyas (a) ile bulup içtiği için, her ikisinin kıyamet gününe kadar bir tür dirilikle

yaşadığına inanılır. Tasavvufta bast (ümitle dolma, ruhen genişlik ve coşkunluk, anlama ve kavramada açılma halidir) haline Hızır, kabz (ruhen tutukluk, içine kapanmaö bir şey düşünmeye ve söylemeye isteksizlik) haline Ilyas denir. Zamanın kutbuna “Hızır-ı Vakt” adı verilir” [Cebecioğlu E. 2004, 274].

Alisher Navoiy ham o'z asarlarida Xizr haqida bir necha bor to'xtalgan bo'lib, ularda bu siymoning turli talqinlari, xususan, diniy-irfoniy talqinlariga ishoralar mavjud. Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Xizr to'g'risida quyidagicha ta'rif keltiradi: “Xizr a.s. ni mursal debdurlar. Va ul Arfaxshad binni Somning o'g'lonlaridindur va Zulqarnayn zamonida aning mulozimi erdi. Zulqarnayn hayvon suyi xiyoli bila zulumatqa kirgonda Xizr a.s. ani boshlab kirdi. Va derlarkim, Ilyos a.s. dog'i bila erdi. Umidkim, quyiroq zikr bo'lg'ay. Ul suvni Tengri taolo bu ikovga nasib qildi va Zulqarnayn mahrum yondi. Va ba'zi debdurlarkim, haq taolo Xizr a.s. g'a ilmi la-dunni nasib qildi va hayvon suyi iborat ondindur. Ahli islom mu'taqiddi uldurkim, Xizr a.s. umri jovid topibdur. Va Xoja Muhammad Porso q.s. ba'zi nusxada mundoq bitilibdurkim, Xizr a.s. Sabzavorning Kavk otlig' kentidindur va holo Hazrat Risolat sallallohu alayhi vasallam dinidadur va imom Shofe'i rahmatullohi mazhabidadur, vallohu taolo a'lam” [Navoiy, 1990, 127].

Navoiy shu asarida yana “To'rt yuz hakim xizmatida erdilar. Aflotuni olihi boshlig' va Arastudek vaziri bor erdi. Sekiz ming shoh va shahzoda xidmatini qilur erdilar. Olamning bahru barin olib, hayvon suyi tamannosi bila zulumatqa kirdi. Aning bila kirgan mulozimlardin biri Xizr, biri Ilyos alayhumus-salom erdilar. Ul suv alarg'a nasib bo'lub, Skandar mahrum yondi...”, – deya Xizr va Iskandar munosabati haqida ham to'xtalib o'tadi [Navoiy. 1990, 127]. Navoiy Xizr haqida ma'lumot berar ekan, u haqida qarashlar, huddi bugunki kun kabi, xilma-xil ekanligini aytib, asosiy e'tiborni Iskandar bilan bo'lgan munosabatiga qaratadi. Ya'ni aynan obi hayotni izlab yo'lga chiqqan yo'ldosh ekanligiga urg'u beradi. Muhim jihati shuki, Navoiy Xizrni “umri jovid topibdur” deb ta'kidlaydi. Ushbu ta'kid bugunki kungacha davom etib kelayotgan Xizr barhayotmi yoki yo'q degan savollarimizga Navoiydan javobdir.

Bundan tashqari Xizr obrazi Navoiy epik dostonlarida ham ko'p bora qo'llanilgan. Xususan, “Saddi Iskandariy”ning bir necha o'rinlarida Xizrnomi uchraydi:

Arastu bila o'q, Balinos edi

Ki, bu Xizr edi, ul bir Ilyos edi [Navoiy 1990, 120].

Qurug'luq aro Xizr o'lub rahbari,
Tengiz ichra Ilyos edi yovari [Navoiy 1990, 145].

Yo'q, Iskandari olamoroda bahs,
Erur balki Xizr-u Masihoda bahs [Navoiy 1990, 249].

Navoiy dostonidagi Chaxcharon daryosi tasvirida ham Xizr detalidan ustalik bilan foydalanib ketadi:

Yana bir anga Chaxcharon rud o'lub
Ki, ul rud hayvon suyidin to'lub.
Yeri rif'at ichra falakdin nishon,
Bu rud anda ul nav'kim Kahkashon.
Ushoq toshlari axtari tobnok,
Latofat aro, o'ylakim durri pok.
Suyi xosiyatda ziloli hayot,
Topib andin ichkan o'lumdin najot.
Qirog'inda har gulbuni axzare,
Baqo ichra bir Xizr payg'ambare [Navoiy 1990, 264].

E'tiborlisi, Navoiy bu baytlarda ham Xizrga payg'ambar sifatini berib o'tadi. Chunki "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida Xizrni "mursal debdurlar" degan edi. Mursal – elchi qilib yuborilgan, payg'ambar kabi ma'nolarni anglatadi. Bulardan kelib chiqadiki, Navoiy Xizr payg'ambar degan qarashlarga ishongan.

Aytish mumkinki, Xizr Qur'oni Karim, hadisi sharif-u tasavvuf lug'atlarida ham, Navoiyning o'z asarlarida ham bir valiy, rahnamo siymo sifatida e'tirof etiladi. Ammo bir obraz yoki timsol har doim bir ma'no yoxud poetik fikr ifodasi uchun ishlatilmasligi ham ayon haqiqat. Shu ma'noda, Navoiy lirikasida Xizr qanday badiiy maqsadlar bilan, qaysi o'rinlarda qo'llanilganini maxsus tekshirish zarurati bor.

O'rganishlar davomida to'plangan statistik ma'lumotlar asosida Xizr obrazining Navoiy lirikasidagi tasvirlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Xizr abadiyat bilan bog'lab talqin qilingan baytlar;
2. Xizr suvi yoki obi hayot talqini kelgan baytlar;
3. "Xatt" detali hamda "yashillik" motivi uchrovchi baytlar;
4. Xizr va Iso Masih obrazi birga tasvirlangan baytlar;
5. Xizr va Iskandar munosabati tasvirlangan baytlar;
6. Xizrga do'st, rahnamo, dardkash sifatida murojaat qilingan

baytlar.

Masalaga mana shu tasnif asosida yondashilsa, mohiyat bir-muncha teranroq ochiladi.

Xizr va abadiy hayot

Yuqoridagi manbalarda ko'rdikki, Xizr tiriklik suvini ichganligi tufayli boqiy umrga ega deb tasavvur qilinuvchi Iso, Idris va Ilyos (a.s) larning biri sifatida qayd etiladi. Ushbu obraz Navoiy lirikasida ham eng ko'p aynan abadiy hayotmotivi bilan bog'liq holda uchraydi. "Badoye' ul-vasat" dagi 386-g'azal hamda "G'aroyib us-sig'ar"dagi 359-g'azal bir xil mazmunda bo'lib, ularda abadiy hayot bilan bog'liq baytlar quyidagicha kelgan:

Labing xat zohir etti, Xizr umri bersalar o'lgum,

Xususankim, Xizrg'a hamdam o'lg'ay obi hayvoning.

Qayd etish kerakki, Navoiy lirikasida Xizrobrazi tasviri kelgan baytlarning deyarli hammasi tasavvufiy ma'no kasb etadi. Ushbu baytda, sodda qilib aytilsa, "labingda xat (mo'y) ko'rindi, endi Xizr o'ziga nasib etgan obi hayoting tufayli erishgan abadiy hayotni beraman desalar ham o'lishga tayyorman" deyilmoqda. Ushbu nasriy bayonda mazmun bir qadar ravshanlashgan bo'lsa-da, bari-bir asl ma'no yuzaga chiqmagan. Bunga sabab baytdagi lab, xat (lab chetidagi mayin tuk, mo'y), obi hayvon kabi so'fiyona istilohlardir. Mana shu atamalarning irfoniy ma'nolari anglansa, masala oydinlashadi.

Unga ko'ra, lab so'z yoki rahmoniy nafs (insondagi ilohiy sifatlar)ga, xat ruhlar olamning namoyon bo'lishiga, obi hayot esa orif-lar istilohida ba'zan ishq-u muhabbat sarchashmasini bildirib, kimki undan ichsa, hargiz yo'qlikka yuz tutmaydi va foniy bo'lmaydi. Va yana ma'shuq og'ziga ishora, gohida ashyoning haqiqati, zoti ma'nosida keladi ("Mir'oti ushshoq").

Mazkur ma'nolardan kelib chiqilsa, "labingda xat (mo'y) ko'rindi" deyilganda "so'zlaring yoki ilohiy sifatlarining tufayli ruhlar olami (yuksaklik dargohi) namoyon bo'ldi" degan ma'no nazarda tutilgan. Ruhlar olamining shohidi bo'lish darajasiga yetish, oshiq nazdida, asl muddaodir. Shu bois u o'lishga ham rozi, garchi abadiy hayot taklif etsalar ham. Aslida, Xizr obrazi ham Navoiy lirikasida Yorga yetishgan inson, haqiqiy ishq vakili va shu bahramandlik tufayli abadiy tirik qolgan timsol sifatida tasvirlanadi. Ammo ushbu baytda lirik qahramon haqiqiy ishqqa yetishganini aytar va bundan sururlanar ekan, o'zini Xizrdan ham baland olib, unga nasib etgan abadiylikdan voz kecha olishiga urg'u beradi. Aslini olganda esa oshiqlar maslagida haqiqiy ishqqa noyil bo'lish ham abadiyat

qozonish sifatida qabul qilingan. Shu ma'noda, Xizr obrazi ushbu baytda o'ziga xos tarzda uzoq yashovchi oddiy inson sifatida talqin etilgan deyish mumkin.

Xizr obrazi bilan bog'liq holda kelgan abadiy hayot motivi turli baytlarda turlicha poetik maqsadlar ifodasi uchun xoslanadi. Masalan:

Ey Xizr, hayvon suyi tut dam-badamkim yor uchun,
Sadqa qilmoqliq uchun har lahza bir jon istaram.

[Badoye' ul-bidoya, 509-g'azal].

Ushbu baytda ham ilohiy ishqning go'zal tasviriga duch kelamiz. Yorga (Allohga) sadqa qilish, fido qilish uchun har lahza menga bir jon kerak, axir, bu ishqni ko'tarish bir jismga og'irlik qiladi. Shu sabab ham lirik qahramon Xizrga murojaat qilib, menga ham obi hayotdan ichir, abadiy o'lmaydigan jonga muyassar bo'lib, butun umrimni yorimga qurbon qilib o'tkazay, deydi. Taslimiyat, ishq kuchi g'azaldan g'azalga yuksalaveradi. G'aroyib us-sig'arning 629-g'azalida ham yuqoridagi bayt kabi go'zal ishq tasviri keladi:

Yuz Xizr umridin ortuqroqdurur, ming jon berib
Bir qadam qo'ymoq muyassar gar bo'lur jonon sari.

Ya'ni uning jon berib jonon sari bir qadam bosmoq – yuzta Xizrning umridan afzaldir. Ushbu baytda ham Xizrning umrboqiyliги chin oshiqning jonfidoligiga zid qo'yilmoqda. Navoiy Xizr va abadiy hayot motividan, odatda, oshiqning fidoiyliги, jondan kechishga tayyorligini bo'rttirishda foydalanadi. "Favoyid ul-kibar" ning 453-g'azalidagi maqta' bilan go'yoki ushbu ishq tasviri yakunlangandek tuyiladi. Lekin bu ishq Navoiyni butun umr tark etmaganligi barchaga ma'lum:

Saranjom o'lmak ermish, ey Navoiy,
Xizr umri muyassar bo'ldi sog'in.

Ey Navoiy, oqibat o'lim mayidan totmoq ekan, ana endi Xizr umri muyassar bo'ldi deb hisobla. Ya'ni o'lim hayotning tugashi emas, balki abadiy umrning boshlanishidir. So'fiylar tili bilan aytganda, o'lim shunchaki makon-u manzilni o'zgartirish emas, bu dunyodan u dunyoga ko'chish va bu yerdagidan yaxshiroq va abadiy hayotga erishishdir. Navoiy ham o'lim sharobini xursandlik bilan xo'pla, chunki mana shu sharob obi hayot kabi senga abadiy hayotni beradi deydi. O'lim orqali erishilgan abadiy hayotgina haqiqiy oshiqni o'z ma'shuqasi, ishqiga yetkazadi. Bunday oshiqlar uchun o'lim chindan ham obi hayot, xursanchilik bilan qabul qilinadigan bir holatdir.

Xizr va obi hayot

Xizr obrazi Navoiy lirikasida eng ko'p "Xizr va obi hayot" masalasi doirasida uchraydi. Xizr obrazi genezisi haqida so'z yuritganimizda ushbu obrazni obi hayot timsolisiz tasavvur qilib bo'lmasligi oydinlashgan. Hattoki, xalq orasida ham bu juda mashhur ekanligini F.Nurmonov o'z nomzodlik dissertatsiyasida aytib o'tadi [Nurmonov 2007, 58-80]. Alisher Navoiy lirikasidagi Xizr obrazini ham obi hayot timsolisiz tasavvur qilish qiyin:

Jomi Jam ichra Xizr suyi nasibimdur mudom,
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.

[Badoye' ul-bidoya, 26-g'azal].

Bu o'rinda "Xizr" so'zi o'z lug'aviy ma'nosida emas, balki "obi hayot" atamasi bilan bog'liq holda kelgan. Ya'ni Xizr obi hayotni ichib, abadiy hayotga erishganligi uchun obi hayotni "Xizr suvi" ham deyilishidan ushbu g'azalda o'rinli foydalanilgan. G'azal boshdan oxir so'fiyona ruhda yozilgan bo'lib, ushbu bayt ham tasavvufiy ma'no-ga ega maqta'dir. Soqiy, Jomi jam va Xizr suyitimsollari manbalarda, asosan, tasavvufiy istiloh sifatida keladi.

Cam: - Farscha. Kadeh, bardak manasindadir. Tasavvuf istilohida, Allah dostunun kalbi ichin kullanılır. Cam-ı cem: Farscha-Arapça. Toplanma kadehi manasınadır. Gönül içinkullanılan bir tâbirdir [Cebecioğlu 2004, 115-116].

Navoiy asarlari izohli lug'atida esa Jomi Jam afsonaviy Jamshid qadahi deb ta'riflanadi. Soqiy – tasavvufda ma'rifat, haqiqat (bodasi)ni ulashuvchidir. Ba'zan soqiydan murod Kavsardir va u goho murshidga ham nisbat beriladi. Soqiy barcha mavjudotga fayz beruvchi, sarxushlik ulashuvchi manbadir [Kononov. 1984, 590]. Boshqa bir manbada shunday deyiladi: "Soqiy Xudodirki, oshiqlarga haqiqat mayini ichiradi va ularni mahv-u foniyl qiladi. Bu so'z istiora yo'li bilan "murshidi komil"ni anglatadi. Soqiy biror qavm yo qabilaning diniy rahbari va oshiqlar yuzidan ma'naviy husn sharobini ichadigan ma'shuqdir" [Kononov. 1984, 594]. Johdan murod esa johillik, ya'ni mansab, shon-shuhrat, davlat, boylik kabi ma'nolardir. G'azalning ushbu baytimaqta' bo'lganligi uchun xulosaviy fikr shu baytda ifodalangan. Ya'ni Jamshid jomi (ko'nglim) ichida hamisha Xizr suyi (haqiqiy ishq) nasibam ekan, ey soqiy (yo Alloh yoki murshid), men barcha shon-u shuhrat hamda boyliklarimni tark aylab senga gado (qul) bo'ldim. Haqiqiy ishq yo'lga kirgan oshiqning eng birinchi va asosiy vazifalaridan biri dunyodan yuz o'girib, faqat ishq va ezgu amallar bilan mashg'ul bo'lish. Ilohiy ishq ham huddi shunday, ya'ni ishq qalbiga nur indirgan oshiq dunyo orzu-havasidan

batamom qo'l uzib, faqatgina qalbini o'rtovchi ishq bilan mashg'ul bo'lishi lozim. Shunday ekan, qalban so'fiy bo'lgan shoir Navoiyning ushbu baytini shaxsiy iqrori, qalbining tub-tubidagi yashirin ishq ifodasi deb talqin qilish mumkin bo'ladi.

Obi hayot timsoli Xizr obrazi bilan bog'liq holda kelgan baytlar, misradan misraga sayqallanib boraveradi. O'lgan insonga jon bag'ishlash, tiriltirish ma'nosidagi baytlar (Badoye' ul-bidoya, 613, Navodir un-nihoya, 631); Xizr bulog'i va xizr suvining bog'liqligi, Xizr buloq suvini qanday topganligi syujetidan tashbeh sifatida foydalanilishi (Badoye' ul-vasat, 547, Navodir ush-shabob, 533); obi hayotning davolovchi xususiyati haqidagi bayt va misralar (Favoyid ul-kibar, 176, Badoye' ul-vasat, 527) shoir devonlarida ko'plab uchraydi.

Xizr va xatt. Xizr va yashillik

Yana bir e'tiborni o'ziga tortadigan jihat Xizr so'zining ko'plab g'azallarda "Xizr xatting" yoki "Xatti Xizring" shaklida "xatt" detali bilan birga qo'llanilishidir:

Xizr xatting sabzasi, hayvon suyi no'shi labing,
Ul su mavjiddin bo'lub bir davri tavqig'abg'abing.

[Navodir un-nihoya, 441-g'azal].

Tasavvufda xat – kibriyolik (ulug'lik, buyuklik) hijobi; Muhammadiy haqiqatga, ba'zan vujud martabasiga yaqinroq bo'lgan arvoh olamiga ishora; Mahbub yuzida latofat, noziklik, go'zallik bilan xat chizilgan durkim, u – barcha noziklik va husn-u jamol nuktalarini jamlovchidir. Agar xat va mahbub yuzini ko'rsang, shak-shubhasiz, kasratni vahdat deb bilasan va senga ma'lum bo'ladiki, vahdat – kunduz, kasrat – kechasidir. Xat – g'ayb olami [URL 2]. Yuqorida ta'kidlanganidek, Xizr, obi hayot obrazi qo'llanilgan baytlarning aksari tasavvufiy mazmunga ega. G'azalning ushbu baytida Navoiy go'zal tashbeh qilib, poetik manzara chizadi. Shu bilan birga tasavvufona ishqning ishoralarini ham singdirib ketadi. Xizr Navoiy lirikasida abadiy tiriklik suvini ichib, vahdatga yeta olmayotgan sarson-sargardon oshiq sifatida ko'p tasvirlanadi. Shundan kelib chiqib bayt tarkibidagi "Xizr xatting sabzasi" birikmasini xat(t)ingning sabzasi – Xizri deb talqin qilish mumkin. Ammo bu talqinda tasavvufiy ma'no ochilmaydi. Bu kabi birikmalarning asl tasavvufiy ma'nolariga yetish uchun Navoiy lirikasidagi boshqa shu kabi baytlarni ko'rib chiqish ham lozim bo'ladi:

Xizr xattingning ajab yo'q sabz-u xurram bo'lmog'i,

Lab-balab chunkim suv berur chashmayi hayvon anga.

[Badoye' ul-bidoya 23-g'azal].

Ilyos Ismoilov o'zining "Navoiy ijodida Iskandar va obi hayot" nomli maqolasida shunday yozadi: "Navoiy "Favoyid ul-kibar" ning 88-g'azalida aytadiki, Xizr – yorning xati, xizr chashmasi – yorning labi, obi hayot esa yorning nutqidir... biz uchun muhimi yor xatining Xizr, yor so'zining esa obi hayot ekanidir. Modomiki, Xizr obi hayot tomon yo'l boshlar ekan, xat yor so'ziga ishora qiladi". Xat – soliklar nazdida ruxlar olamining namoyon bo'lishiga ishora yoki xatdan murod yuksaklik, ya'ni yolg'iz ruhlar olamidir... xat jon olami sabzazori sifatida ham qo'llaniladi, shu bois uni "Dori hayvon", ya'ni hayot uyi deb ham nomlashadi. Shabustariy aytadiki, bu yerda yuz Xudo husnining mazharidir, xat (mo'y)dan maqsad esa yuksalik dargohini ifodalashdir" [Sajjodiy 1370, 353]. Ushbu ta'riflardan ko'rinadiki, Navoiy xat detalini tasavvufiy ma'noda oshiqning ma'shuq visoliga yetishish (so'fiyning Alloh jamoli, marhamatiga erishuvi) yo'ldagi eng muhim belgi, ya'ni jamol zohir bo'lganining ilk belgisi sifatida qo'llaydi. Xizr xatingning – mo'yingning yam-yashil, shod-xurram ekanligiga xayron emasman, chashmayi hayvon (yor so'zi)dan doimiy tarzda qonib ichgach, xurram bo'lishi tabiiy, deydi. Bu yerda yana bir e'tiborli jihatlardan biri shundaki, nima uchun mo'y (xat) aynan Xizr (yashil, tiriltiruvchi) bilan birikma sifatida kelayotganligidir. Yashil rang hayot timsoli, hayot bo'lganida ham bahoriy va eng xushnud damlarga ishora qiluvchi rang. Sebzi: Farscha, ye'sillik demektir. Sebz ye'sil anlamina. Hakiki vahdetle birle'sen mutlak kemal. Tasavvuf lug'atlarida ham yashillik baxt ifodasi sifatida beriladi. Xat yor jamoli zohir bo'lishining ilk belgisi bo'lgani, yorning oshiqqa jon bag'ishlovchi so'zlariga ishora qilgani uchun ham yashil tusli va abadiy hayot egasi ma'nolariga ega so'z Xizr bilan birgalikda qo'llaniladi. Zero, Yor jamolining zohir bo'lishi ham oshiqqa "mutlaq komil" lik baxsh etadi.

Xizr obrazining yashillik ma'nosi haqida so'z yuritilar ekan quyidagi g'azalga ham to'xtalib o'tish lozim:

Chamanda tozalig'din har quruq shoxe erur Xizre,

Magarkim andin o'tmish obi hayvonim xirom aylab.

[Badoye' ul-bidoya, 75-g'azal].

Bu g'azalda Xizr so'zining lug'aviy ma'nosi, "yashillig"idan o'rinli va juda go'zal tarzda foydalanilgan. Ab-ı hayavan: Farscha, dirilik suyu Ebedi hayat verdiği zannolunan su. Tasavvufta bu terim "irfan"ın müteradifi olup nurun pırıldıları ve İlâhî tecelliler için de

kullanılır [Cebecioğlu 2004, 30]. Chaman – bogʻ, bu oʻrinda, ehtimol, takka – soʻfilarning makonida quruq shox yoʻq, barchasi Xizr (yashil, oʻlmas, qurimas) chunki bu bogʻdan obi hayvon oqib oʻtgan. Obi hayvon tasavvuf lugʻatida keltirilganidek “irfon” – haqiqiy ishq. Chaman - haqiqiy ishqqa vasila boʻlgan, tasavvufning barcha bosqichlaridan oʻtib soʻngi bosqichga yetishgan soʻfiyning qalbi, undagi quruq shoxlar esa insondagi barcha yomon xislatlar jamlanmasi. Bunday qalbdan oqib oʻtgan obi hayvon – Alloh soʻfiyga nasib etgan himmat qalbni barcha yomonliklardan poklashi haqiqatdir. Huddi shu mazmunga yaqin boʻlgan yana bir gʻazalda yozadi:

Laʼli bir soʻz birla yuz yillik oʻlukni Xizr etar,
Goʻyiyo Ruhulloh ushbu obi hayvon ichradur.

[Badoyeʼ ul-bidoya, 154-gʻazal].

Ushbu gʻazalda Navoiyning goʻzal tashbehlariga yana bir bor duch kelamiz. Bilamizki, yashillik – tiriklik razmi. Xizr soʻzining lugʻaviy maʼnosi esa, yuqorida ham keltirib oʻtilganidek, yashil demakdir. Gʻazalning shu baytida Navoiy ustalik bilan Xizr soʻzidan foydalanadi. Yorning, maʼshuqaning labi, dudogʻi bir ogʻiz soʻz aytsagina boʻldi “yuz yillik oʻlukni Xizr etar”. Goʻyoki “ruhulloh” – Ollohning ruhi, Iso paygʻambar mana shu obi hayvon – yorning labʼi, soʻzi hayot suvining ichida yashiringan. Bunday timsol va obrazlar ham yuqoridagi gʻazal bilan ayni.

Xizr va Iso Masih

Navoiy poetikasini, xususan, gʻazaliyotini oʻrganish asnosida Xizr obrazi juda koʻp hollarda Masih, Iso nomlari bilan birga qoʻllanilishi koʻzga yaqqol koʻrinadi. Maʼlumki, Iso Masih ham tugʻilgan-u oʻlmagan paygʻambar hisoblanadi va unga ergashuvchi din vakillari Iso (a.s.) ning tirikligi, ularga rahnamolik qilishi va bir kuni qaytishiga qattiq ishonishadi. Mana shu jihatdan Xizr va Iso bir biriga oʻxshash prototiplardir. Yaʼni, tugʻilgan, biroq oʻlmagan. Yana bir oʻxshashlik Iso (a.s.) ning oʻlikni tiriltira olish qobiliyatidir. Huddi obi hayot – Xizr suvini ichgan oʻlik ham tirilganidek.

Navoiy Xizr va Masih obrazlaridan juda unumli foydalangan. Ikki katta obrazni bir-biri bilan bogʻliq holda koʻplab gʻazal baytlarida uchratamiz. Hatto Navoiy “Xizr-u Masih” radifli butun boshli ikkita gʻazal ham bitgan. Ushbu gʻazallarning biri “Badoyeʼ ul-vasat”ning 103-gʻazali, ikkinchisi esa “Favoyid ul-kibar”ning 103-gʻazalidir. Gʻazallardan biri toʻqqiz, biri esa yetti baytlik. Xizr va Masih obrazlari Navoiy lirikasida qay tarzda namoyon boʻlishini aynan mana gʻazallar belgilab beradi:

Ey, xat-u jonbaxsh la'lingdin nishon Xizr-u Masih,
Balki bu ikki uyotidin nihon Xizr-u Masih.

[Badoye' ul-vasat, 103-g'azal].

Ya'ni, ey yor, Xizr-u Masih xating va jon bag'ishlovchi labingdan nishona, balki Xizr-u Masih xating va labingdan uyalgani tufayli yashirindir.

Masih har qanday dardni davolay oluvchi, o'likni tiriltiray oluvchi ekanligi ma'lum. G'azalning eng e'tiborli jihati Xizr va Masih obrazlari birga qo'llanilib, radif sifatida foydalanilganidir. Poetik jihatdan ham g'azal asosiy ma'nosini tashuvchi so'z radifga olinadi. Demak, ushbu g'azalda urg'u Xizr va Masihga berilgan. Ikkisining birga qo'llanilishi esa anglashilgan ma'noni bo'rttirishga xizmat qilgan. Yuqoridagi maqta'da xat Xizr va Masihga hamda jonbaxsh la'l Masihga tashbeh qilingan.

Xat labing uzra, labing yuz uzradur qilg'on kebi
Obi hayvon-u quyosh uzra makon Xizr-u Masih.

[Badoye' ul-vasat, 103-g'azal].

Xizrning makoni yo'q, odamlar orasida kezib yuradi. Ammo hadis va Qur'oni Karimda keltirilgan rivoyatlarda u ikki dengiz oralig'ida yashaydi. Iso esa xristianlar e'tiqodiga ko'ra, Quyoshning o'g'li hisoblanadi. Go'yo xatingning labing ustida, labingning yuzing ustida go'zal tarzda joylashgani Xizrning ob hayvon uzra, Masihning esa Quyoshda yashashiga o'xshaydi. G'azal baytma-bayt yor tasviri mubolag'alari bilan davom etaveradi. G'azal poetikasida asosiy ma'no maqtadan oldingi baytga tushishi ma'lum. Bu g'azalda ham asosiy ma'no aynan ana shu maqta'dan oldingi baytda ifodalangani:

Xattidin la'lig'a yettim, la'lidin toptim hayot,
Ul ikav bo'ldi manga, ey xasta jon, Xizr-u Masih.

Soliki foniy tavajjuh din taraddud aylamas,
Yotsalar mahviy shuhud bo'lg'an zamon Xizr-u Masih.

[Badoye' ul-vasat, 103-g'azal].

Xat oshiq jamoli zohirining ilk belgisi, la'l visol. Visol – haqiqat bosqichi, lomakonga yetish. Xizr – ma'shuqasini izlayotgan abadiy sargardon oshiq, Masih ham huddi shunday. Xat(t) orqali visolingga yetishib aslimni, haqiqiy o'zligimni, hayotimni topdim, ana shu ikki narsa menga o'zligimni topishimga Xizr va Masih bo'ldi. Ya'ni o'lik qalbimning ishq nuri bilan tirilishi Xizrning abadiy hayotga erishuvi va Masihning o'likni tiriltirishi kabidir, demoqchi shoir. So'fiy

tavajjuhda hech ham ikkilanmaydi, taraddulanmaydi. Zotan, u ana shu tavajjuh yo'lida umrini sarf qiladi. Shunday zamon bo'ladiki, deydi Navoiy, mahviy narsa shuhud bo'ladi, ya'ni jismi izziz yo'q bo'lgan Iso paydo bo'ladi yoki o'zi istagan kishilarigagina ko'rinadigan Xizr zohir bo'ladi. Huddi shu kabi vaqtlar g'animat, taraddudlanmaydigan vaqt. Odamzot bir umrana shu kabi oniy lahzalar uchun yashaydi, o'shanday buyuk tavajjuhlar uchun so'fiylar tariqat yo'llarida sinaladi. Ayni baytlarda Navoiy ulug' kun – qiyomatga ham ishora qiladi. Ushbu ishorada esa go'zal talmeh bilan Masih va Xizr obrazlaridan foydalanadi.

Yana bir "Xizru Masih" radifli g'azal "Favoyid ul-kibar"ning 103-g'azalidadir. Ushbu g'azal 7 baytlik. G'azal ma'nosi deyarli yuqoridagi g'azal bilan bir xil, faqat poetik tasvirbiroz boshqacha. "Badoye' ul-vasat"dagi g'azalning matla'dan keyingi bayti va ushbu g'azalning matla'dan keyingi bayti ayni bir xil, uslub o'zgacha:

Xat labingg'a muttasildur, lab yuzungakim, erur
Obi hayvonu quyoshqa muttasil Xizr-u Masih.

[Favoyid ul-kibar, 103-g'azal].

Maqta'dan oldingi baytda oldingi g'azalga qaraganda ushbu g'azalda ma'no kuchaytirilib beriladi:

Sabzayi xat ko'rguzub, jonbaxsh labdin so'z degach,
Bo'ldilar ul hayrat ichra muzmahil Xizr-u Masih.

[Favoyid ul-kibar, 103-g'azal].

"Sabzayi xat" haqida yuqorida fikr yuritdik. Xizr hadisda insonlar ichidagi eng bilimdon inson deb keltiriladi. Insonning bilimi qanchalik yuksak bo'lsa, hayrati shunchalik kam bo'ladi. Masih ham o'z zamonining eng bilimdon kishisi bo'lib, hattoki o'lgan insonni tiriltirish ilmiga ega bo'lgan. Demak, har ikkisining ham hayrati juda oz. Ammo kasrat (xat) vodiysida jonbaxsh la'lidan (Allohning so'zi; bu g'azal, ehtimol, na't g'azal bo'lib Payg'ambarimizning so'zlari haqida ham gap ketayotgan bo'lishi mumkin) so'z eshitgach, ushbu so'zlarning hayratidan hatto Xizr va Masih ham o'zlarini yo'qotib qo'ydilar. Ko'rib chiqilganidek, Navoiy Xizr va Masih obrazlaridan unumli foydalangan. Talmehga, asosan, abadiy hayot, tiriltiruvchi xususiyat, bilimdonlik kabi xislatlarini asos qilib olgan.

Xizr va Iskandar

Iskandar va Xizr munosabatlari tasviri ham Navoiy ijodining ajralmas va muhimqismlaridan biridir. Bu shoir lirikasida ham yaqqol seziladi. Ilyos Ismoilovning yuqorida ta'kidlangan maqolasida

bu borada shunday deyiladi: “Navoiy Iskandar mavzusiga daxldor obraz va syujetlardan mana shunday yuksak irfoniy g'oyalar ifodasi uchun san'atkorona foydalangan. Shoir lirikasida ba'zan butun boshli g'azal shu masala doirasidagi obrazlar asosiga quriladi. Shoir ular da lirikada faol qo'llanuvchi Iskandar bilan aloqador muhim obrazlar ma'nolarini ham ochib beradi” [Ismoilov 2017, 56-62]. Ushbu fikrlarning tasdig'i “Navodir ush-shabob”ning, 178, 172-g'azallarida, “Navodir un-nihoya”ning 142-g'azalida hamda “Badoye' ul-vasat”ning 69-g'azallarida yaqqol ko'rinadi. Mazkur maqolada ayni mavzuga aloqador quyidagi fikrlar ham keltiriladi:

“Xat sanga Xizr-u labing – chashmayi Xizr,
Nutqung – ul chashma aro obi hayot...
Zulfung ovvora ko'ngullardin erur,
Yuz Skandarni iturgan zulmot.

Lirik qahramon g'azalning dastlabki baytida yorga murojaat etib, unda barcha yaxshi sifatlarning mavjudligi haqida umumiy tavsifni keltiradi. Keyingi baytlarda bu tavsif tafsilotlar bilan asoslab boriladi. Unga ko'ra, Xizr – yorning xati (labi ustidagi mayin tuk), Xizr chashmasi – yor labi, obi hayot – yor so'zlari bo'lib, zulmat esa ovvora ko'ngilni – yuzlab Iskandarlarni adashtiruvchi qora zulfidir. Baytdagi Xizr, Xizr chashmasi, obi hayot va zulmat obrazlari muayyan ma'nolaridan tashqari ular, Navoiyga ko'ra, tegishlicha xat, lab, so'z va zulf kabi ma'nolarga ham ega. Yuqoridagi to'rt obrazning ikkinchi ma'nolari, irfoniy nuqtayi nazarda, yanada chuqurroq mohiyat kasb etgan, unga ko'ra xat – ruhlar olamining namoyon bo'lishiga, lab – so'z yoki rahmoniy nafasga (insondagi ilohiy sifatlarga), nutq – g'ayb sirlari izhoriga, zulf esa erishib bo'lmas mutlaq haqiqatga ishora. Demak, Navoiy ijodida Iskandar mavzusiga oid obrazlar batamom ramziylashib, irfoniy g'oyalar ifodasi uchun bo'ysundirilgan bo'lishi ham mumkin. Bunda hatto Iskandar ham yuqoridagi ikkinchi baytda bo'lgani kabi, o'z tarixiy ildizidan uzilib, yor ko'yida sarson-sargardonlar yoki umumlashma obraz sifatida talqin qilindi. Darhaqiqat, ikkinchi baytda qo'llangan Iskandar, zulmat obrazlari va iturmoq, ya'ni yo'q qilmoq, adashtirmoq fe'li talmehi sifatida obi hayot afsonasiga ishora qilayotgan bo'lsa-da, Navoiy unda bu obrazlarning ijodida anglatgan majoziy ma'nolarini nazarda tutgan” [Ismoilov 2017, 61-62].

Gar Skandar mulki birla Xizr umri bersalar,
Uyla mulk-u buyla umri jovidondin kechkamen.

[Badoye' ul-vasat, 470-g'azal].

“Badoye’ ul-vasat”dagi ushbu 470-g’azalda ham Iskandar va Xizr obrazlaridan ilohiy muhabbatga bo’lgan sadoqat ifodasi uchun foydalanilgan. Xulosa shuki, Navoiy lirikada Iskandar va Xizr munosabati tasviridan, obi hayot voqeasidan obrazidan ilohiy ishqning mubolag’ali tasviri uchun foydalanadi. Chinakam oshiqning kechinmalari yuksakligini badiiy isbotlashda zidlovchi sifatida foydalanadi.

Xizrga murojaat

Lirikada inson qaysidir ma’noda o’zining parallel umrini yashaydi. Tug’iladi, ulg’ayadi, kuladi, yig’laydi, ehtimol, o’ladi ham. Hatto bir emas, bir necha bor o’ladi... Navoiy o’z real hayoti bilan birga lirikasi-yu dostonlari ichida yashagani aslo inkor etilmaydi. Lirikada shoirning parallel ravishdagi hayoti ekan, u yerda ham shoir uchun yo’ldosh, sirdosh, rahnamo zarur bo’ladi. Navoiyda bunday rahnamolar ko’p bo’lgan: Jomiy, Nizomiy, Dehlaviy... Shoirning lirika-dagi rahnamolari orasiga Xizrni ham kiritish lozim. Xizr shoir, ijodkor emas. Ammo u har bir adashgan insonning yo’lboshlovchisi. Navoiy ba’zi g’azallarida Xizr bilan suhbat quradi [Badoye’ ul-vasat, 648-g’azal]; ba’zilarida unga arzi hol qiladi [G’aroyib us-sig’ar, 225-g’azal]; yana ba’zilarida esa unga yo’l ko’rsatuvchi [Navodir ush-shabob, 398-g’azal] sifatida qaraydi.

Qo’lda, ey Xizri rahim, xasta Navoiy qo’lini,
Kim bu yo’l po’yasidin bag’ri oning toldi yana.

[Badoye’ ul-bidoya, 648-g’azal].

Inson hayotida sodir bo’ladigan oddiy hollardan biri – toliqish! Ammo bu g’azalda nazarda tutilgan toliqish butunlay boshqacha. U tariqat bosqichlaridan birma-bir o’tib borayotgan, ilohiy ishqqa yetish, ma’shuqaning jamoliga nazar solish yo’lida sarson-u sargardon bo’lgan (Xizr kabi) oshiqning toliqishidir. Ammo bu ishqda toliqqan oshiq yengiladi, toliqish va to’xtash mumkin emas. Huddi Xizr kabi doimiy harakatda bo’lish lozim. Ushbu baytda Navoiy Xizrga oddiy “Ey, Xizr” deb emas, “Xizri rahim” (yo’ldagi Xizr) deb murojaat qilayotgani ham shunga ishora. Xizri rah – yo’ldagi Xizr, degani. Navoiy Xizri rah deganda pir, yorni nazarda tutadi. Aynan Xizrning o’zini emas.

Jahonni zulmat etti chah, bu zulmat ichra o’lgum, vah,
Manga bo’lsang ne Xizri rah, yetib, ey obi hayvonim.

Obi hayvon – ilohiy ishqqa noil qiluvchi irfon, haqiqat suvi, zulmat esa qalbi ishqdan mahrum, dardi dunyo bo’lgan insonlardir. Shu kabi ishqsiz insonlar ichida o’lib qolmasligim uchun, ey obi hay-

von, menga yo'ldagi Xizrim bo'l. Toki men ham haqiqat izlab sarson-sargardon bo'lsam ham, abadiyatim Haq bo'lsin. Navoiy "Favoyid ul-kibar"ning 591-g'azalida aniq qilib Xizrni rahbarim deb ta'kidlaydi:

Sabzayi xatting xayoli birla savdo dashtidin,
Gar Navoiy chiqsa, tong yo'q, Xizr erur chun rahbari.

Navoiy Jamolingga eltuvchi yo'lning xayoli bilan ishqning zulmatidan tirik chiqib kelsa, hech ham ajab emas, chunki uning rahbari, yo'lboshlovchisi Xizrdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy Xizrning payg'ambar ekanligiga ishongan. Xizr haqidagi mifologik, folklor, afsonaviy qarashlardan ham boxabar bo'lgan hamda lirikada, xususan, g'azallarida ushbu obrazni barcha qarashlargamuvofiq tarzda tasvirlagan. Xizrning rahnamo sifatidagi timsoli tasviri bilangina chegaralanmagan. Yoki faqat payg'ambarlik sifatiga urg'u bermagan. Navoiy so'z o'yinlarida ham, go'zal tashbeh va isitioralarda ham Xizr timsolidan keng foydalangan. Ko'plab g'azallarida obraz sifatida, yana ko'plab g'azallarida timsol sifatida gavdalandirgan. Atorflicha yondashilib, barcha boshqa tarixiy shaxslar bilan aloqasi, hamkorligiga ham diqqat qaratgan, nazardan qochirmagan. Biroq hamisha Xizr talmehli bayt-u g'azallarda irfoniy ma'noni saqlab qolgan. Faqat oshiqona g'azalda tasvirlab qolmay, na't g'azallarda ham murojaat qilgan. Obraz shoir ijodida muhimligining yana bir isboti, Xizr-u Masih radifli ikkita ma'nosi bir xil g'azalning ikki xil farqli usulda berilishidir. Tashbehlarining, so'zlarning boshqa boshqa qo'llanilishidir. Eng muhimi, barcha mifologik qarash-u afsonalarga oid tasvirlar qo'llash jarayonida aslo islom ta'limotidan chetga chiqilmagan, adashtirilmagan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Xizr obrazi Navoiy lirikasidagi eng muhim va katta obrazlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

- Навоий, Алишер. 1987. Бадойиъ ул-бидоя. МАТ. 20 томлик. Т.1. – Тошкент: Фан.
- Навоий, Алишер. 1987.Наводир ун-ниҳоя. МАТ.20 томлик. Т.2. – Тошкент: Фан.
- Навоий, Алишер. 1988. Ғаройиб ус-сиғар. МАТ. 20 томлик. Т.3. – Тошкент: Фан.
- Навоий, Алишер. 1989. Наводир уш-шабоб. МАТ. 20 томлик. Т.4. – Тошкент: Фан.

- Навоий, Алишер. 1990. Бадоеъ ул-васат. МАТ. 20 томлик. Т.5. – Тошкент: Фан.
- Навоий, Алишер. 1990. Фавойид ул-кибар. МАТ. 20 томлик. Т.6. – Тошкент: Фан.
- Навоий, Алишер. 1990. Садди Искандарий. МАТ. 20 томлик. Т.11. – Тошкент: Фан.
- Навоий, Алишер. 1990. Тарихи анбиё ва ҳукамо. МАТ. 20 томлик. Т.16. – Тошкент: Фан.
- Кононов ва б. 1984. Навоий асарлари изоҳли луғати. 4 томлик. Т.1. – Тошкент: Фан.
- Кононов ва б. 1984. Навоий асарлари изоҳли луғати. 4 томлик. Т.2. – Тошкент: Фан.
- Кононов ва б. 1984. Навоий асарлари изоҳли луғати. 4 томлик. Т.3. – Тошкент: Фан. Кононов ва б. 1984. Навоий асарлари изоҳли луғати. 4 томлик. Т.4. – Тошкент: Фан.
- Комилов, Нажмиддин. 2009. Тасаввуф. Тошент: Мовароуннахр – Ўзбекистон.
- Uludağ, S. 2002. Tasavvuf terimleri sözlüğü. İstanbul: Kabalcı Yayınevi.
- Cebecioğlu E. 2004. Tasavvuf terimleri ve deyimleri sozluğu. İstanbul: Agac Kitabeyi Yayinlari.
- Sajjodiy, Sayyid Ja'far. 1370. Farhangi istilohot va ta'biroti irfoniy. Tehron: Tohuriy.
- Мансур, Абдулазиз. 2004. Қуръони карим (маъноларининг таржимаси). – Тошкент: Тошкент ислом университети.
- Rabg'uziy Nosiruddin Burhonuddin. 1990. Qisasi Rabg'uziy. T.2. – Toshkent: Yozuvchi.
- Турдимов, Шомирза. 2011. “Гўрўғли” дostonлари генезиси ва тадрижий босқичлари. Тошкент: Фан.
- Nurmonov, Furqat. 2007. Xizr obrazi genezisi va uning o'zbek folkloridagi talqini. Nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent.
- Jo'raqo'ziyev, Nodir. 2018. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar va turkiy folklorda kosmogonik mifologiya. PhD dissertatsiya. Toshkent.
- Jo'raqo'ziyev, N. I. “Model of the world order in the literature and folklore of the ancient Turkic peoples.” BULLETIN of the L.N. Gumilyov Eurasian National University. Philology Series 134, no. 1 (2021): 23–36.
- Ismoilov, Ilyos. 2017. Navoiy ijodida Iskandar va obi hayot. Til va adabiyot jurnali 5: 56 – 62.
- Мадиримова, С. (2019). Мутриб ижодида Навоий анъаналари. *in Library*, 19(1), 440–441.
- Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Akademnashr, 2015.
- Юсупова, Д. (2016). Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти. *Алишер Навоий даври*. Т.: “Тамaddon”-2016.
- Sh, S., Yusupova, D., & Navoiyshunodlik, D. O. (2018). Darslik. Т.: TAMADDUN.
- Юсупова, Д. (2013). Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. (Алишер Навоий даври). Т.: Akademnashr, 11–13.

- Умарова, С. (2023). Суйима Ғаниева илмий-адабий мероси: тадқиқот усуллари ва мезонлари. Каталог монографий, 1(4), 3–90.
- HAMROYEVA, O. (2024). " NAVOIYNING FORSIY SHOIRLIG'I..." XUSUSIDA. *Alisher Navo'i and 21 st century*, 1(1).
- Jalolovna, H. O. CORRELATION BETWEEN THE SCIENCE OF RHYME AND THE SCIENCE OF BADE'. *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY*, 181.
- Amonov, S. N. (2024). Navoi And Tabiby: Literary Following. *SPAST Reports*, 1(1).
- Jabborov, N. (2024). Artistic Interpretation of the Futuvvat Idea in Alisher Navoi's Works. *SPAST Reports*, 1(1).

Internet manbalar

- URL: http://navoi.natlib.uz:8101/uz/devoni_foniy_davomi_un_tuqqizin-chi_tom/izohlar/
- URL: <https://ozhanoturk.com/2018/03/27/hizir-hizir-aleyhisselam-islam/>
- URL: <https://www.hurriyetdailynews.com/who-was-the-hizir-in-hidirellez-46185>
- URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Lavhul_mahfuz

Interpretations of the image of Khizr in the poetry of Alisher Navoi

Khafiza Abduraimova¹
Ilyos Ismoilov²

Abstract

The place of Alisher Navoi in the history of Turkish literature, especially Uzbek literature, is incomparable. In this article, an attempt is made to get to the essence of the images in Alisher Navoi's ghazals and lyrics, and the reasons for his artistic images and interpretations are revealed to some extent.

¹ *Abduraimova, Khafiza* – Graduate student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: abduraimovaxafiza@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0009-0008-4636-9133

² *Ismoilov, Ilyos* – Doctor of Philology (DSc), Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Department of History of Uzbek Literature, associate professor, etc.

E-mail: ismoilov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-8077-7914

For citation: Abduraimova, K., Ismoilov, I. 2024. "Interpretations of the image of Khizr in the poetry of Alisher Navoi". *Uzbekistan: Language and Culture*. 1(2): 98-119.

It is no coincidence that the image of Khizr was chosen for the article. Khizr is a very famous person in the mythology, folklore and literature of the Turkic peoples. Due to its popularity, it has served as an image for proverbs and sayings. The attitude of Alisher Navoi, a great pillar of Turkish literature, to this image is certainly interesting. For this reason, the images of the image of Khizr in Alisher Navoi's lyrics were chosen as a source for the article.

The article examines both scientific, artistic and mythical views related to the image of Khizr, and to what extent they influenced Alisher Navoi's work. In the process of writing the article, several foreign and national sources, religious literature were also referred to.

Key words: *Alisher Navoi, Khizr, Khidirillez, ghazal, Musa, Iskandar, righteous servant, talmeh, symbol, image, Khizr-u khatt, Khizri rah, prophet, guardian.*

References

- Navoiy, Alisher. 1987. *Badoyi' ul-bidoya*. MAT. 20 tomlik. T.1. – Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 1987. *Navodir un-nihoya*. MAT. 20 tomlik. T.2. – Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 1988. *G'aroyib us-sig'ar*. MAT. 20 tomlik. T.3. – Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 1989. *Navodir ush-shabob*. MAT. 20 tomlik. T.4. – Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 1990. *Badoye' ul-vasat*. MAT. 20 tomlik. T.5. – Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 1990. *Favoyid ul-kibar*. MAT. 20 tomlik. T.6. – Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 1990. *Saddi Iskandariy*. MAT. 20 tomlik. T.11. – Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 1990. *Tarixi anbiyo va hukamo*. MAT. 20 tomlik. T.16. – Toshkent: Fan.
- Al-Buxoriy, Ismoil. 1991. *Al-jome' as-sahih*. 2 jildlik. 1-jild. – Toshkent: Qo-muslar bosh tahririyati.
- Kononov va b. 1984. *Navoiy asarlari izohli lug'ati*. 4 tomlik. T.1. – Toshkent: Fan.
- Kononov va b. 1984. *Navoiy asarlari izohli lug'ati*. 4 tomlik. T.2. – Toshkent: Fan.
- Kononov va b. 1984. *Navoiy asarlari izohli lug'ati*. 4 tomlik. T.3. – Toshkent: Fan.
- Kononov va b. 1984. *Navoiy asarlari izohli lug'ati*. 4 tomlik. T.4. – Toshkent: Fan.
- Komilov, Najmiddin. 2009. *Tasavvuf*. Toshkent: Movarounnahr – O'zbekiston.
- Uludağ. 2002. *Tasavvuf terimleri sözlüğü*. Istanbul: Kabalcı Yayınevi.
- Cebecioğlu E. 2004. *Tasavvuf terimleri ve deyimleri sözlüğü*. İstanbul: Agac Kitabeyi Yayinlari.

- Sajjodiy, Sayyid Ja'far. 1370. Farhangi istilohot va ta'biroti irfoniy. Tehron: Tohuriy.
- Abdulaziz Mansur. 2004. Qur'oni karim (ma'nolarining tarjimas). Toshkent: Toshkent islom universiteti.
- Rabg'uziy Nosiruddin Burhonuddin. 1990. Qisasi Rabg'uziy. T.2. Toshkent: Yozuvchi.
- Nurmonov, Furqat. 2007. Xizr obrazi genezisi va uning o'zbek folkloridagi talqini. Nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent.
- Jo'raqo'ziyev, Nodir. 2018. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar va turkiy folklorda kosmogonik mifologiya. Nomzodlik dissertatsiya. Toshkent.
- Jo'raqo'ziyev, N. I. "Model of the world order in the literature and folklore of the ancient Turkic peoples." BULLETIN of the L.N. Gumilyov Eurasian National University. Philology Series 134, no. 1 (2021): 23–36.
- Ismoilov, Ilyos. 2017. Navoiy ijodida Iskandar va obi hayot. Til va adabiyot jurnali 5: 56 – 62.
- Мадиримова, С. (2019). Мутриб ижодида Навоий анъаналари. *in Library*, 19(1), 440-441.
- Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Akademnashr, 2015.
- Юсупова, Д. (2016). Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти. *Алишер Навоий даври*. Т: "Тамaddon"-2016.
- Sh, S., Yusupova, D., & Navoiyshunodlik, D. O. (2018). Darslik. Т: TAMADDUN.
- Юсупова, Д. (2013). Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. (Алишер Навоий даври). Т: Akademnashr, 11-13.
- Умарова, С. (2023). Суйима Ғаниева илмий-адабий мероси: тадқиқот усуллари ва мезонлари. Каталог монографий, 1(4), 3–90.
- HAMROYEVA, O. (2024). "NAVOIYNING FORSIY SHOIRLIG'I..." XUSUSIDA. *Alisher Navoi'i and 21 st century*, 1(1).
- Jalolovna, H. O. CORRELATION BETWEEN THE SCIENCE OF RHYME AND THE SCIENCE OF BADE'. *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY*, 181.
- Amonov, S. N. (2024). Navoi And Tabiby: Literary Following. *SPAST Reports*, 1(1).
- Jabborov, N. (2024). Artistic Interpretation of the Futuvvat Idea in Alisher Navoi's Works. *SPAST Reports*, 1(1).

Web information

- URL: http://navoi.natlib.uz:8101/uz/devoni_foniy_davomi_un_tuqqizinchitom/izohlar/
- URL: <https://ozhanotzrurk.com/2018/03/27/hizir-hizir-aleyhisselam-islam/>
- URL: <https://www.hurriyetdailynews.com/who-was-the-hizir-in-hidirellez-46185>
- URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Lavhul_mahfuz